



JANGNOMAYI ZUFUNUN” ASARINING TILSHUNOSLIK TAHLILI GRAMMATICAL ANALYSIS OF THE WORK DJANGNOMAYI ZUFUNUN

Xudoyqulov Rahmon

Renessans ta'lim universiteti assistant-o'qituvchisi

xudoyqulovrahmon@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932755>

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududidagi asarlar bir tomondan eski o'zbek tilining xususiyatlarini namoyon qilsa, boshqa tomondan esa, zamonaviy turkiy lahjalarga o'tish davri til xususiyatlarini ko'rsatadi. Tezis ishimizning mavzusi bo'lgan “Jangnomayi Zufunun” nomli asar ham aynan shu davr ijod namunalaridan bo'lib, u 1911-yilda yozilgani qayd etilgan (95/16) va Mulla Sayyid Xo'ja Eshon tashabbusi bilan Kogon (Buxoro) bosmaxonasida Arab alifbosida nashr qilingan. Asarning nomi 2-sahifada “Qissayi Zufunun” deb berilgan. 95- va so'nggi sahifada jangnomadan tashqari ikki latifa va ikki bayt mavjud. Asar matnida voqealar Abdulloh ibn Abbos tomonidan zikr etilgani qayd etilgan. Matn tili XIX asr oxiri – XX asr boshidagi eski o'zbek tilining so'nggi davridan zamonaviy turkiy lahjalarga o'tish davriga mansubdir. Matnda, shuningdek, tarixiy shaxslar, jug'rofiy nomlar va islom madaniyatiga oid unsurlar ham o'rin olgan. Maqolada, “Jangnomayi Zufunun” nomli ushbu asarni jamoatchilikka tanishtirish hamda asarning til xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

Kalit So'zlar: Zufunun, Muhammad Hanafiyya; Eski o'zbek tili; O'zbek tili; Yangi uyg'ur tili.

Abstract. This study presents a linguistic analysis of the work “Cengnāme-i Zūfūnūn,” a literary piece composed in 1911 and printed in Arabic script at the Kogon (Bukhara) press under the initiative of Molla Sayyid Khoja Ishon. The text reflects features of late Chaghatay language while also exhibiting transitional characteristics toward modern Turkic dialects. The work contains historical figures, geographical names, and elements of Islamic culture. This article aims to introduce “Cengnāme-i Zūfūnūn” to Turkology scholarship and to reveal its linguistic features from the perspectives of orthography, phonetics, and morphology.

Keywords: Zufunun, Muhammad Hanafiyya; Historical Uzbek Language; Uzbek Language; New Uyghur Language.

Kirish

Tadqiqotning maqsadi – 1911-yilda yozilgani qayd etilgan (95/16) va Mulla Sayyid Xo'ja Eshon tashabbusi bilan Kogon (Buxoro) bosmaxonasida nashr qilingan “Jangnomayi Zufunun” nomli jangnoma hamda uning 95-sahifasida ikki hikoya va ikki bayt joylashgan Arab alifbosidagi matnini imlo, fonetika va morfologiya nuqtai nazaridan til tahlilini amalga oshirishdir. Asar, nusxa va variantlarining keng geografiya bo'ylab tarqalganiga va mashhur asar bo'lishiga qaramay, til jihatidan o'rganilmagan.

Matnning tili XIX asr oxiri – XX asr boshidagi eski o'zbek tilining so'nggi davridan zamonaviy turkiy lahjalarga o'tish davriga mansubdir. Matn tilida uchraydigan zamonaviy Qarluq, kam bo'lsa-da O'g'uz va Qipchoq adabiy tili so'z



boyligi unsurlari, fonetika va morfologiya til xususiyatlari aniqlanmoqda. Shu bilan birga, Arab va Fors tillarining grammatik xususiyatlari va soʻzlariga ham duch kelinadi. Tadqiqot mavzusi boʻlgan matn, muayyan bir davrning til xususiyatlarini yoritish nuqtai nazaridan qimmatli materiallar taqdim etadi. Matn, shuningdek, tarixiy shaxslarni, geografik nomlarni va islom madaniyatiga oid unsurlarni ham oʻz ichiga oladi. Tadqiqotning maqsadi – matn yozilgan davrning til xususiyatlari va soʻz boyligini aniqlashdir.

“Jangnomayi Zufunun” yuzasidan oʻtkazgan matn tahlilimiz nafaqat tilshunoslik, balki xalq adabiyoti tadqiqotlarida ham izlanuvchilar uchun muhim manba boʻladi.

Gʻazot mavzusidagi adabiy asarlarda, islom daʼvatchisi sifatida Hazrat Ali va shunga bogʻliq ravishda uning oʻgʻli Muhammad Hanafiyyaning nomi tez-tez tilga olinadi [Koyuncu, 2020. 156]. Tezis ishi mavzusi boʻlgan “Jangnomayi Zufunun” asarining ayol qahramoni ham asarda Muhammad Hanafiyya bilan jang qiladi. Shunday qilib, “Jangnomayi Zufunun” nomli asar bir maʼnoda Muhammad Hanafiyya jangnomalarining bir variantini tashkil etgan boʻlishi kerak. Bu yerda, folklor tadqiqotchisi Ilhom Sayitqulov oʻzbek tilida yozilgan qissalarni oʻrgangan adabiyotshunos Q. Tohirovning “Zufunun” qissasini janr jihatidan diniy-axloqiy janr deb taʼriflaganligini alohida taʼkidlab oʻtamiz [Sayitqulov, 2020, 20].

“Jangnomayi Zufunun”

Asarning nomi muqova sahifasida “Jangnomayi Zufunun”, 2-sahifada esa “Qissayi Zufunun” deb berilgan.

Azimova, Oʻzbekiston Respublikasi Qoʻlyozmalar kutubxonalarida diniy mavzudagi asarlar orasida islom tarixining badiiy tasvirlangan, mashhur tarixiy shaxslar va sarkardalar faoliyati qalamga olingan qissalar koʻp ekanligini taʼkidlaydi. U bunday asarlarga “Hikoyati Hajjoj va Imom Muhammad Boqir”, “Hikoyati Amir Hamza”, “Hikoyati Imom Muhammad Hanifa” (yoki “Zaynalarab”), “Jangnomayi Haft Gʻazot hazrat Ali”, “Jangnomayi Sayyid Battol Gʻoziy”, “Jangnomayi Zufunun”, “Musibatnomayi Turkiy”, “Qissayi Imom Husayn” kabi asarlarni misol keltiradi. Uning fikricha, tezis mavzusi boʻlgan “Jangnomayi Zufunun” nomli asar hamda bu kabi asarlarning koʻpchiligi Arab va Fors-Tojik tillaridagi asarlar taʼsirida yuzaga kelgan boʻlsa-da, mavzu va voqealar turkiy tilli mualliflar tomonidan badiiy yondashuv asosida tasvirlangan va oʻzbek adabiyotining abadiy mulki sifatida shakllangan [Azimova, 2022. 227].

Doston matnining raqamli nusxasi Uygʻurlar tomonidan tayyorlangan bir internet sahifasidan olindi (<https://www.uyghurkitap.com/book/5795>, 04.02.2023). Muqova sahifasida asarning Mulla Sayyid Xoʻja Eshon tashabbusi bilan Kogon



bosmaxonasida nashr etilgani Fors tilida yozilgan, ammo nashr sanasi berilmagan. Afsuski, ushbu shaxs haqida hozirgacha biror ma'lumotga erishilmadi. Asar matnida voqealar Abdulloh ibn Abbas tomonidan zikr etilgani aytilgan. Asarda tilga olingan Abdulloh ibn Abbas, Hazrat Payg'ambarning amakisining o'g'li, tafsir va fiqh ilmlarida obro'li deb qabul qilingan va ko'p hadis rivoyat qilgan sahobalardan biri bo'lishi kerak (<https://islamansiklopedisi.org.tr/ibn-abbas>, 09.11.2023). Jangnomadan tashqari ikki hikoya va ikki bayt joylashgan 95- va so'nggi sahifada asarning yozilgan sanasi qaydi mavjud. Unga ko'ra, asar hijriy 1329 (milodiy 1911) yilda yozilgan. Nashr qilingan yil va geografik hudud ham inobatga olinib, asarning Yangi Buxoroda (Kogonda) 1894-yilda ochilgan Levin Nashriyoti [Yelova, 2023. 8] tomonidan nashr qilinganini taxmin qilmoqdamiz.

“Jangnomayi Zufunun”, Turkistonda 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab nusxa va variantlari mavjud bo'lgan, qisman folklor xarakteriga ega bo'lgan va ayollarning islom dinini yoyishdagi ahamiyatini badiiy tarzda hikoya qiluvchi asar bo'lib, o'zbek olimi Dilmurod Quronov “Zufunun qissasi”ning xalq orasida tanilgan, mashhur asar ekanligini yozgan [Quronov, 2020, 247].

Asarning, Turkiston musulmonlarining avval Chor Rossiyasining bosqinlariga, so'ngra Sovet Ittifoqiga qarshi turishida va urushga tayyorlanishida muhim o'rin tutgani tushuniladi.

Sovet Ittifoqi tashkil topgandan so'ng Turkiston turklarini Islom dinidan uzoqlashtirish va kommunizm mafkurasini faollashtirish siyosatlari bilan boshqa ko'plab asarlar singari, xalq orasida juda keng tarqalgan va mashhur bo'lgan bu asar ham unuttirilishga harakat qilingan.

Ayni paytda muqova sahifasi ham bo'lgan 1-sahifada nomi “Jangnomayi Zufunun”, 2-sahifada esa Qissayi Zufunun deb ko'rsatilgan asar, Turkiston hududi Qarluq, Qipchoq va O'g'uz shevalari bilan eski o'zbek tilidan tashkil topgan aralash sheva xususiyatlariga ega asardir. *Zufunun* Arab tilidagi so'z bo'lib, “fanlar egasi, bilimdon” ma'nolarini anglatadi.

Asar matnida keltirilgan jami 429 satrdan iborat manzum qismlar quyidagi nomlar bilan atalgan: nazm (19), g'azal (3), munocot (5), vidonoma (1), savolnoma (1), ruboiy (1), murattaba (1), bayt (5).

“Jangnomayi Zufunun” nomli asar ishimizga mavzu bo'lgan jangnomalardan biridir. Bu asar, “Hikoyati Amir Hamza”, “Hikoyati Imom Muhammad Hanifa” (yoki Zaynalarab), “Jangnomayi Haft G'azot hazrat Ali” nomli asarlarda bo'lgani kabi, Hazrati Ali, uning nabirasi Muhammad Hanafiyya va Muhammad Hanafiyya bilan Zufununning janglarini mavzu oladi. Asarda, islom dini uchun qilingan janglar yetakchi mavzudir. Jangnomada, bir tomondan Muhammad Hanafiyya bilan



Zufununing janglari, boshqa tomondan esa ularning bir-biriga oshiq bo'lishlari mavzu qilinadi.

Til va imlo xususiyatlari

“Jangnomayi Zufunun” ustida o'tkazilgan tahlil, asarning eski o'zbek tilining so'nggi davrida yozilganini, so'z boyligi nuqtai nazaridan asosan turkiy, arabiy, forsiy va ancha kam bo'lsa-da, boshqa tillardan o'tgan so'zlardan tashkil topganini, eski o'zbek yozma tilining davomi bo'lgan O'zbek va Yangi uyg'ur tillariga o'xshash va farqli til va imlo xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

1. Yasalish va tuslanish qo'shimchalari Turkiy-Uyg'ur yozma an'anasiga muvofiq ba'zan alohida, ba'zan esa qo'shib yozilgan: *ayliq* (55/11), *sensiz* (36/7), *atasini* (4/17), *aldiga* (4/17); *atlig* (85/1), *otkurup* (88/6), *qulini* (31/20).

2. Bir necha joyda ikki so'zning bir-biriga qo'shib yozilgani ko'rinadi: *ko'rey_dep* (20/13), *ozi_meydange* (91/4), *ey_ferzend* (56/19).

3. Ba'zi so'zlar va qo'shimchalarning ikki xil yozilishiga duch kelingan: *at* (6/7) ~ *at* (6/10), *manga* (38/14) ~ *manga* (57/9).

4. Turkiy so'z yoki qo'shimchalarning to'g'ri o'qilishini ta'minlash uchun ba'zan *qiradur* (89/19), *qulaç* (26/7), *kunide* (37/7) kabi misollarda harakatlardan, *guçça* (30/11) so'zida esa shadda ishorasidan foydalanilgan.

5. Turkiy so'z o'zaklarida lablanmagan unlilar uyg'unligi qoidasi katta hajmda saqlangan, ba'zi yasalish va tuslanish qo'shimchalari esa *qaraqçı+lik* (26/3), *bende+liq* (40/12) kabi misollarda ushbu qoidaga bo'ysunmagan. Shuningdek, lablangan unlilar uyg'unligining to'liq rivojlanmagani kabi eski o'zbek tili xususiyati ham *tamur* (83/7), *yapuş-* (29/6) kabi misollar bilan matnga aks etgan.

6. Undoshlar uyg'unligida esa ba'zi hollarda hatto bir xil so'z va qo'shimchalarda nomuvofiqliklarning hukmron ekanligi ko'rinadi: *ayt-kil* (50/2) ~ *ayt-gil* (28/18), *ayt-di* (49/18) ~ *ayt-ti* (6/2), *tart-ti* (30/9) ~ *tart-di* (75/16) va h.k.

7. Matnda, bir turkiy va bir necha o'zlashma so'zda /c-/ ~ /ç-/ tovushlarining ikki xil qo'llanilishi e'tiborga loyiqdir: *çöne-* (40/4) ~ *cöne-* (93/9), *çabduq* (62/20) ~ *cabduğ* (81/18) ~ *cabduq* (48/4), *çān* (15/1) ~ *cān* (7/4), *çehān* (12/21) ~ *cehān* (12/8), *çeng* (67/4) ~ *ceng* (9/9), *mu'āleçe* (34/11) ~ *mu'ālece* (44/10) va h.k. Bu xususiyat Toshkent viloyati shevalari [Shoabdurahmonov, 1976. 18], Andijon shevasi [Ibrohimov, 1967. 69], Surxondaryo shevasi bilan Qozog' va Qoraqalpoq lahjalari [Rahimov, 1985. 53] kabi ham O'zbek tili shevalarida, ham ba'zi Qipchoq guruhi turkiy lahjalarida uchraydi.

8. Eski o'zbek tilining xarakterli xususiyati bo'lgan /p/ > /f/ tovush o'zgarishi hodisasi matnimizda ham o'rin olgan: *faxta* (10/8), *tofrağ* (50/21), *qalfaq* (57/1), *if* (10/8).



9. Matnimizda *er-* ~ *è-* to'liqsiz fe'lining ikki xil qo'llanilishiga duch kelinadi:
èr-: *bilip èr-di-m (69/20), musulmān qilgan èr-di (77/10), barip èr-dü-k (44/5), qabül qilmas èr-miş (65/12);*

è-: *bolsa è-di (33/13), ol è-di (65/20), sözler è-dü-k (67/17), qazgan è-ken (44/7), körgen è-miş (65/4).*

10. Ba'zi misollarda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushum kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *bu üç kişi+niñ özleriğa hemrāh qılıp (2/10), a+niñ éltip şehzāde-i imānsızge bērdi (19/7), ol āayd meni sōzüm+niñ qabül qılmaydur (17/8), kārīstān oyunlar+niñ başımızğa salur (5/11), oşal yerde Őūfününniñ āhı+niñ Hūdāy Te'ālā qabül qıldı (17/2) va h.k.*

11. Ba'zi misollarda tushum kelishigi qo'shimchasi qaratqich kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *üy+ni burçığa (3/18), ölük+ni qanığa (4/13), yay+ni kirişige (14/12), toñuz+ni başını (58/7) va h.k.*

12. Ba'zi misollarda aniqlovchili otli birikmalarning qaratuvchi unsurlari qaratqich kelishigi vazifasidagi tushum kelishigi qo'shimchasini va qaralmish unsurlari egalik vazifasidagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgani ko'rinadi: *analarını cilavining alıp (11/1), emdi barip Zūfünün birle atasını şehring alıp musulmān qilmasam (9/8), bizni xaberimizning 'Alīğa aytadur (87/8), el-qışsa on tuğdārını hemmesiniñ qolğa tüşürdi (81/1) va h.k.*

13. Bir misolda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi tushum kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *sizni ayaqlarınız+ğa mu'āleçe qilalı (34/11).*

14. Ba'zi misollarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rin-payt kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *hāzret-i Murtezā 'Alī emīrzāde birlə ğar+ğa bāmdādnu edā qıldılar (84/2), bugün tañ+ğa üstimizge kēlip (5/10).*

15. Ba'zi misollarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi chiqish kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *Imām Muḥammed Hānefiyyeniñ körmaq+ke eşitmaqları ziyāde boldı (7/14).*

16. Ba'zi misollarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rin-payt kelishigi vazifasida ishlatilgan: *Medīne baramen (40/8), ol qız dem urmay Imām qılıç saldı (26/4), tā Medīne kēldi (66/5).*

17. Ba'zi misollarda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi jo'nalish kelishigi vazifasida qo'llanilgan: *mun+da kēltürgil (47/5), emīrzāde anda qondılar (77/8, 77/9), bu başım sēnsizin tofraq içi+de kirgeni bihraç (37/2), qay+da barursizler (64/21) va h.k.*

18. Chiqish kelishigi qo'shimchasining eski o'zbek tilida qo'llanilgan *-dın / -din* (ot+dın (17/17), *éger+din* (35/5)) shakllaridan tashqari, Mamluk-Qipchoq tiliga



xos bo'lgan *-dan / -den* shaklining ham tez-tez uchrab turishi, Qipchoq ta'sirining (Eckmann, 2021, 76-b.) ko'rsatkichi bo'lishi kerak.

19. Matnda, *tur-ur* > *dur-ur* tuzilishidan qo'shimchaga aylangan va eski o'zbek tiliga ham xos bo'lgan *-dur/-tur* qo'shimchasidan tashqari, *-dü* va zamonaviy O'zbek tilida ham mavjud bo'lgan *-di* qo'shimchalariga ham duch kelinadi:

-dur, -dür: ayt-a-dur-sen (9/3), *izlen-e-dür-men* (16/5), *bol-ma-y-dur-sen* (88/7);

-dü: körme-y-dü-gen (36/16);

-di: oqu-y-di (40/6).

20. Matnning so'z boyligida, bir tomondan Yangi uyg'ur tilidagi *emdi* so'zining bir varianti sifatida *èmdi* (7/11) so'ziga, boshqa tomondan esa bu so'zning zamonaviy O'zbek tilidagi varianti bo'lgan *èndi* (10/3) so'ziga, shuningdek, Yangi uyg'ur tilidagidek unlilari yumaloqlashgan *ögür-* (89/8) (O'zbek tilida: *ögir-*), *töştük* (<*tesh-ik+lik*; solishtiring: YUyg. *töşüklük* "teshik ochilgan, teshik qo'yilgan" [UTIL-I. 361] (15/10), yoki *tört* (3/9) so'zi bilan birga Yangi uyg'ur tilidagidek tovush tushishiga uchragan *töt* (*on töt lek* (88/15)) so'ziga duch kelinishi kabi jihatlar asar tiliga ilk davr zamonaviy turkiy lahjalarning ta'siri sifatida qaralishi mumkin.

21. Yana, matnda Yangi uyg'ur tilida sifatlar va ravishlarni kuchaytirish hamda otlarni ravishga aylantirish vazifasida qo'llaniladigan *+lik+i* qo'shimcha birikmasiga (batafsil ma'lumot uchun qarang: Chelikbay, 2021) oid bir misolning uchratilishi diqqatga sazovor xususiyatdir: *kündüz+lüki* "kunduz kuni" (72/20).

22. *yür-* (87/8) so'zi bilan birga *yürü-miş* (80/7), *sev-er yār* (83/15), *bil-mem ki* (79/18), *bol-* so'zi bilan birga *ol-* (75/16, 7/21) misollarida O'g'uz ta'siri ko'rinadi.

Xulosa

"Jangnomayi Zufunun" nomli asar, eski o'zbek tilining so'nggi davriga oid bo'lgan va Muhammad Hanafiyya bilan Zufununning janglari hamda bir-biriga oshiq bo'lishlarini mavzu qilgan bir jangnomadir.

Eski o'zbek va Turk-Uyg'ur yozma an'anasini aks ettirgan bu asar O'zbek tili va Yangi uyg'ur tilidan ko'rsatgan farqlari bilan birga, o'tish davri xususiyatlarini ham namoyish etadi. Shuning uchun asar, eski o'zbek tilidan zamonaviy turkiy lahjalarga o'tish davrining til xususiyatlarini aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi.

Asarda umuman eski o'zbek tilining til xususiyatlari bilan birga, zamonaviy O'zbek va Yangi uyg'ur tili xususiyatlariga duch kelinishi ham Turkiy til tarixining muayyan bir davrining til xususiyatlarini kuzatish nuqtai nazaridan ahamiyatga egadir.



Asar, til xususiyatlaridan tashqari, xalq adabiyoti tadqiqotchilari, diniy mavzularga va geografik nomlarning qo'llanilishi nuqtai nazaridan ham tarixiy geografiya uchun muhim material hisoblanadi.

Asarda qo'llanilgan tovush o'zgarishlari va qo'shimchalarning qo'llanish shakli sheva tadqiqotchilari uchun manba qiymatiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atalan, M. (I/2 (Güz 2008). Türk Kültüründe Hz. Ali Cenknâmeleri. e-makâlât Mezhep Araştırmaları, 7-27.
2. Atalan, M. (Güz 2012). Cenknâmelerde Hz. Ali'nin Yeri (Cilt V). e-makâlât Mezhep Araştırmaları.
3. Azimova, L. (2022). O'zbek Adabiyotida Islom Tarixiga Oid Qissalar (XIX Asr Misolida). Analytical Journal of Education and Development, 227-232.
4. Bodrogligeti, A. J. (2001). A Gramer of Chagatay. Muenchen: Lincom Europa.
5. Caferoğlu, A. (1968). Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. İstanbul: Edebiyat Fakültesi Matbaası.
6. Clauson, S. G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: At the Clarendon Press.
7. Çelikbay, A. (2021). Yeni Uygur Türkçesinde Bir Kök-Ek Birleşmesi: +liú+i, +lik+i, +luú+i, +lük-i. Modern Türk Araştırmaları Dergisi (18), 433-455.
8. Demir, R. (2019). Manzum Hz. Ali Cenklerinden Yemame Cengi Üzerine bir İnceleme. Kastamonu: magistrlik dissertatsiyasi.
9. Doerfer, G. (1976, Ocak 1). Proto-Türkic: Reconstruction Problems. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı, 1975-1976 (23-24), 1-59.
10. Eckmann, J. (2021). Çağatayca El Kitabı. (G. Karaağaç, Çev.) Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
11. Khudoyqulov, R. (2025). Cenknâme-i Zūfünün (inceleme, metin, dizin). Anqara: magistrlik dissertatsiyasi.